HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING ASARLARIDA NUTQ MADANIYATIGA OID QARASHLARI

Bekmuratova Gulzoda Sagindikovna
CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti
o‘zbek tili adabiyot yo‘nalishi
2-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada keyingi yillarda nutq madaniyati tilshunoslikning mustaqil ilmiy yo‘nalishi sifatida shakllanib va rivojlanib borganligi haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga bu sohaning ko‘pgina muammolari hali o‘zining asosli va chuqur tadqiqini topganicha yo‘q. Ushbu maqola nutq madaniyati va odobi, mutolaa madaniyati hamda muloqot madaniyati kabi yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitishda barcha qatlamlardagi yoshlarga nazariy material vazifasini o‘tashi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Ahloqi muhsiniy, nutq madaniyati, nutq odobi, notiqlik, adolat, Husayn Bayqaro, Muhsin Mirzo.

Jamiyat a’zolarini to‘g‘ri yo‘lda tutib turishning birdan bir yo‘li nutq odobi tushunchasi bilan bog‘lik tamoyillarga amal qilib yashash ajdodlarimizning qon-qoniga singib ketgan asosiy qoida sifatida qabul qilingan yashash tarziga aylangan.

Sharq xalqlarining ushbu qarashlarini to‘g‘ri va ham nazariy, ham amaliy jihatdan oqillik bilan tartibga solib bayon qilgan ulug‘ alloma Husayn Voiz Koshifiydir. Koshifiy o‘zigacha bo‘lgan xalq udumlari va turmush tarzini juda yaxshi anglagan mohir faylasufdir. Uning ana o‘sha faylasufona qarashlari uni nutq odobi, nutq madaniyati, til madaniyati, nutq madaniyati va notiqlik kabi masalalarni sharqona san’at darajasida tasvirlab yozish imkonini berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki tarixdan ma’lumki, xalqning tili, didi xususida yozishdan avval o‘sha xalqning fe’lini puxta o‘rganmoq zarur. Chunki inson fe’li til orqali yo yaxshi yoki yomon tomonga o‘zgaradi.

“Ahloqi muhsiniy” Koshifiyning ahloqshunoslikka bag‘ishlangan eng mashhur asari hisoblanadi. Husayn Bayqaroning o‘g‘li, Marv hokimi shahzoda Muhsin Mirzoga bag‘ishlangan, ushbu kitobida Koshifiy ahloqshunoslikning juda ko‘p tushunchalariga sharh beradi,ularni jonli hayotiy misollar,shuningdek, qadimgi hikoyalar asosida talqin etadi. U yaxshilik va yomonlik haqida fikr yuritar ekan,yaxshilikni asosan ezgulik ma’nosida tushunadi. Ezgulikning ibtidosini Koshifiy xushxulqlikda ko‘radi. Insoniy fazilatlarni u tarbiya, bilim, tajriba orqali tarkib topadi deb hisoblaydi. Halollik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, insonparvarlik singari ahloqiy me’yolar va tamoyillar

ezgulikning poydevori sifatida olib qaraladi.Koshifiy “Ahloqi muhsiniy” asarida adolat tushunchasiga, ayniqsa, batafsil to‘xtaladi va uni o‘ziga xos sharhlaydi.”

“*Adolat zulm ko‘rganlarning dodiga yetib, ahvollariga shavqat nazari bilan qarash demak. Ehson esa g‘ussa tig‘idan majruh bo‘lganlarning jarohatiga rohat malhamini surish demakdir”.* [“Ahloqi muhsiniy”. 42-bet]. Demak, olim adolatning savobini cheksiz deb bilgan Adolatli bo‘lish bu zulm ko‘rgan insonlarga yordam berish ularning dardiga darmon bo‘lish, insoniylikning belgisi sifatida ta’riflagan. Doima adolatli bo‘lish va adolat tarafida turish kishiga manfaat olib keladi,chunki haqiqat yo‘li kishini muvaffaqiyat sari olib borishi aniq. Haqiqat tarafdori bo‘lish orqali obro‘-e’tibor, hurmat-ehtirom orttiradi va dunyoda xech kimdan tili qisiq bo‘lmaydi. Adolatsizlik esa, buning aksi. Kishi haddidan oshgani, o‘zini yo‘qotib qo‘ygani tufayligina adolat mezonodan o‘tishi mumkin.

Insonlarni adolat va haqiqat asosida harakat qilishga majbur qiladigan fazilatlar, uning irodasining to‘g‘riligiga olib keladi va odamlarni illatlardan uzoqlashtiradi. Ko‘pincha xulqning yaxshiligi xalq bilan birga zikr qilinadi. “Falonchining xulqi ham go‘zal, xalqi ham go‘zal”, - deyiladi.Bu uning ichi ham, sirti ham yaxshi deganidir. Xulqdan murod ichki surat, xalqdan murod tashqi suratdir. Zotan inson jasad va nafasdan iboratdir. Jasad tan ko‘zi ila, nafs qalb ko‘zi ila idrok qilinadi. Ularning har birining o‘ziga yarasha shakl shamoili, chiroyli va xunuk surati bor. Qalb ko‘zi bilan idrok qilinadigan nafs tan ko‘zi bilan idrok qilinadigan jasaddan ulug‘dir. Shuning uchun ham amallar yaxshi bo‘lsa “yaxshi xulq” deb, yomon bo‘lsa, “yomon xulq” deb ataladi. Kimki yaxshi kishilar bilan ko‘proq hamsuhbat bo‘lsa, u inson hamisha niyatiga yetadi Bu haqda Koshifiy “*Yaxshilar bilan hamsuhbat va donolar bilan hamnishin bo‘lish saodati abadiy kimyosi va doimiy davlat rahnamosidir“ [“*Ahloqi muhsiniy” 205-bet*]* – deya ta’rif bergan. Bu ayni haqiqat yaxshilarning suhbati chinakam saodatga eltuvchidir. Yomonlarning aralashuvi esa baxtsizlikka boshlovchidir. Bunga shak-shubha yo‘q. Yaxshilarning suhbati insonga ko‘p va xo‘b foyda beradi. Faqat chiroyli odob sharti bilan. “Yaxshilar bilan suhbat qurish” bayonida podshohlar saltanatni uzoq ushlab turishining boisi hargiz suhbatlarini hakimlar va fozillardan xoli, ularning kengashisiz hech hukm yuritmasligida deb biladi. Bunga misol tariqasida yunoniylarning rasm rusumlari haqida aytib o‘tishimiz mumkin. Ular viloyatlarga hokim tanlashda ilmli, fozil kishilardan bo‘lishini xohlaganlar. “*Xabarda yozilishicha, yaxshi hamsuhbat attor kabi bo‘lib, garchi mol-mulkdan bermasa ham, uning hididan bahramand bo‘lasan, yomon hamsuhbat temirchi kabi bo‘lib, garchi o‘tida kuymasang ham, tutun va issig‘idan alamnok bo‘lasan.*”. *[“*Ahloqi muhsiniy” 207-bet*]*. Ya’ni, yaxshi hamsuhbat mushki anbar olib yurgan kishiga o‘xshaydi. Birga yursang mushkidan beradi, bermasa ham, uning hush bo‘yidan bahranmand bo‘lasan, Yomon hamsuhbat temirchiga o‘xshaydi. Yo kiyimingni kuydiradi, yoki uning badbo‘y hidi senga ham urib qoladi deyilgan. Shunday ekan, inson axloqini go‘zal va

chiroyli qiladigan narsalaridan biri yaxshilar bilan hamsuhbat bo‘lishdir desak mubolaga bo‘lmaydi. Birovga taqlid qilish inson tabiatidagi bor narsa. O‘z atrofidagilarning kiyimlariga o‘xshash kiyim kiyishga uringan inson, albatta o‘shalarning qiladigan ishlariga va odob axloqlariga ham taqlid qiladi.

Donishmandlardan biri: “Do‘sting kim ekanligini menga aytsang, men sening kim ekanligingni aytib beraman” degan ekan. Barcha insonlar ham suhbatlashish va do‘st bo‘lishga munosib bo‘lavermaydi. Shunday ekan inson hamisha do‘st va hamsuhbat tanlashda adashmasligi lozim.

Demak, madaniyatli va ma’rifatli inson so‘zni sidqu sadoqat, samimiyat bilan so‘zlamog‘i, suhbatdoshi so‘zini jon qulog‘i bilan, diqqat e’tibori xayrixohligi va hamdardlik bilan tinglamog‘i maqsadaga muofiqdir. Koshifiy o ‘z suhandonligi davrida bu qoidalarga to‘la rioya etishga harakat qilgan va bo‘lajak notiqlarni ham bu qoidalar asosida ish yuritishga undagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husayn Voiz Koshifiy. “Ahloqi muhsiniy”. Toshkent. “O‘zbekiston”2019.

2. O‘.H. Islamov. Alisher Navoiy asarlarida nutq madaniyati va muloqot odobi talqinlari. Toahkent. Nodirabegim. 2020.

3. Qung‘urov R., Begmatov E, Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, Toshkent, O‘qituvchi. 1992.

4. R, Rasulov, A.Shofqorov, Q.Mo‘ydinov. O‘qituvchi nutqi madaniyati va notiqlik san’ati.(O‘quv qo‘llanma) Toshkent. Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2022.

5. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. B.188.

6. Mirziyoyev Sh.M. Xalq so‘zi. Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. 2019 yil. 22 oktyabr. 1-bet. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.

7. R.Mahmudov. Notiqlik san’ati va nutq madaniayti. (Darslik) Toshkent. 2020.

8. Kaykovus. Qobusnoma. “O‘qituvchi”. 2019.

9. Farhod.Mustafoyev. Suhbatdoshni sirli boshqarish. Farg‘ona. 2005.